

3-Mavzu: Ta'lim texnologiyalari pedagogik mahoratning nazariy asoslari.

Reja:

1. *Ta'lim texnologiyasi mazmuni.*
2. *Pedagogik mahoratni shakllantirishda ta'lim texnologiyasi.*
3. *Pedagogik texnika – o'quv jarayonini samarali tashkil etish shartidir. Pedagogik jarayonda teatr pedagogikasi elementlarini qo'llash.*

Kalit so'zlar : Texnologiya, ta'lim texnologiyasi , pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiyaga yunesko bergan ta'rif, jahon va o'zbekiston olimlarining bergan ta'riflari, bixeviorizm, pedagogik texnologiya xususiyatlari, reproduktiv ta'lim, xotira maktabi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. Azizxujaeva N.N.O`qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi-T.: 2000
2. Muomala treningi – T.: Universitet, 1994 yil
3. El`konin D.V. Psixologiya igri – M., 1997

Xorijiy adabiyotlar.

1. Unt Inge. Individualizatsiya i differentsiatsiya obucheniya.- M.: Pedagogika, 1990.
2. Yudin V.V. Pedagogicheskaya texnologiya. – Yaroslavl', 1997.
3. Shatalov V.F. Pedagogicheskaya proza. – M.: Pedagogika,1980.

Qo`shimcha adabiyotlar.

1. “ Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili” davlat dasturi.

Internet saytlari.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz

1. Ta'lim texnologiyasi mazmuni.

“Texnologiya” atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o'zlashtirilganki, bunda “yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o'zgaradi” (A.M. Kushnir, 2004 y.).

Texnologiya mohiyati va vazifasi bo'yicha insonshunosiylik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo'lishidek qabul qilish kerak” (A.M. Kushnir, 2004 y.).

“**Texnologiya**” yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib “*techne*” - mahorat, san'at, malaka va “*logos*” - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi:

- xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish *yo'l va usullarining yig'indisi* (texnologiyani jarayonli-bayonli tomoni);
- yuqorida ko'rsatilgan *yo'l va usullarni* ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi *ilmiy fan*. Texnologiyani ilm sifatidagi vazifasi, moddiy manba va vaqtlar kam sarflashni talab etuvchi samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy tomoni);
- *jarayonning o'zi* – topilmani qazib olish harakatlari, ishlov berish, qayta ishlash, transportda tashish, omborga joylash, saqlash, shuningdek ishlab chiqarishning texnik nazorati (jarayonli harakat tomoni).

Ta'limni texnologiyalashtirish bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi:

- bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, *muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi* (ta'lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

- bu mavjud yuzaga kelgan ta'limiy jarayon sub'ektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi. **“Pedagogik texnologiya”** – pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha.

- **“Ta'limiy texnologiya”** – “ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda butun ta'lim berish jarayoni va bilimlarni o'zlashtirish shu bilan birga ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli” (YUNESKO).

- *Ta'lim texnologiyasi va uning konseptual asosnomasini (TT ilmiy tomoni) o'z ichiga oladi.*

Pedagogik ilm va amaliyotda “pedagogik texnologiya”, “ta'limiy texnologiya” va “ta'lim berish texnologiyasi” kabi atamalar keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. SHu bilan birga ularni tushunishda alohida bo'lgan o'qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, ularni nima ajratib turishini tushunish uchun “texnologiya” va uning kelib chiquvchilari: “texnologik jarayon”, “texnologik harakat”, “texnologik xarita”, “texnologik tartib” tushunchalarini aniqlash lozim.

Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, novator o'qituvchilar tajribasi, ta'lim metodlari. tarbiya metodlari kabi tushunchalarni qamrab olishi bilan birgalikda ta'lim jarayonida oldinga qo'yilgan maqsadga erishishning yo'li, o'ziga xos inslrumentariy bo'lib hisoblanadi.

Demak. pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish. shu sohadagi maqsadga erishish yo'li.

Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalari-ni qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa. o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadr-lar tayyorlash milliy dasturi* talablari asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

1. Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba (o'quvchi) egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Bilim. ko'nikma va malakalar DTS talab-laridan past bo'lmasligi kerak.

2. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining maqsadi bitta- ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishdan iborat. Bu maqsad-davlat ta'lim standartlarining bosh talabidir. Ta'lim jarayonidagi har bir texnologiya, berilgan topshiriqlar o'quvchining ijodiy ftkrlashiga va ijodiy rivojlanishiga olib kelsin. Shunday vaziyat yaratish kerakki. o'quvchi(talaba) o'z xohishi bilan izlansin, tafakkurini rivojlan-tirsin, intilsin. unda fanni egallashga qiziqish uyg'onsin.

3. Har bir mashg'ulotda beriladigan topshiriqlar umumiy vaqtning 20-25% ini egallasin. o'quvchining ijodiy tafakkur asosida ish olib borishi esa vaqtning 70-80% miqdoriga to'g'ri kelsin. O'quvchi ko'proq amaliy bilimlarni egallasin va undan nazariy xulosalar chiqara olsin.

4. O'qitish texnologiyasida bilim berish. bilim olish usulini tan-lash va o'rganishga katta ahamiyat berish. bilim olishning bahs-mu-nozara asosida amalga oshirishini ta'minlash.

5. O'qitish usuli-texnologiyasi yangi pedagogik texnologiyalar-ning asosi bo'lib hisoblanadi.

6. Ta'lim jarayonida darslarni bahs-munozara, seminar, o'yinlar, disputlar, quvnoqlar va zukkolar musobaqasi tarzida va har xil teatr-lashgan vaziyatlar shaklida tashkil etish, ya'ni ta'limda tabaqalash-tirilgan yondashuvni amalga oshirish lozim.

7. Ta'lim jarayonining tayanch bilimlarni amaliyotga tatbiq etib. rivojlantirib borish asosida va tizimli tarzda tashkil etilishi yangi pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining uzviyligini ta'-minlovchi - lokal (bitta yo'nalish) holatining samara berishiga olib keladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta'limni texnologiyalash-tirish oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan. Har bir dars ta'lim beruvchi. tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutib amalga oshiriladi.

O'quv jarayonida motivatsiya. bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi o'ziga xos texnologik vazifalar mavjud:

1. Motivatsiya - o'quvchilar diqqatini tortish. ichki tuyg'u-istak. zaruratni shakllantirishdir. O'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi uchun ham asosiy harakatlantiruvchi kuch-ichki motivatsiya bo'lishi kerak.

2. Bilish faoliyatida e'tibomi asosan quyidagilarga qarata borish kerak: o'quvchilarda tashabbuskorlik. mustaqillik. bilimlarni puxta o'zlashtirish istagini paydo qilish. zarur malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga moyillik tug'dirish. tafakkur rivojiga jiddiy e'tibor qara-tish va h.k..

Boshqarish faoliyatining vazifalari berilayotgan bilim. ko'nikma va malakalar tizimini tashkil etish bilan bog'liqdir. Darsda qo'l-lanilayotgan texnologiyalarga ularning monitoringi asosida va piro-varid natijasi orqali baho beriladi.

Pedagogik innovatsiya-ta'limga yangiliklarni kiritishdir. Boshqa-rishda pedagogik innovatsiyaga rioya qilmoq zarur.

Pedagogik texnologiya esa dinamik jarayonlarning in'ikosi sifatida rivojlanadi. takomillashadi va vaqt mezonida boyib boradi.

2. *Pedagogik mahoratni shakllantirishda ta'lim texnologiyasi.*

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayri-xohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillash-tirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'zifanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'lla-rini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituv-chining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi". Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta kompo-nent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

PEDAGOGIK MAHORATNING TASHKIL ETUVCHI KOMPONENTLARI

- ✚ O'qituvchilik kasbiga sadoqat;
- ✚ o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- ✚ pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- ✚ pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaat-lari yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash-ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bu borada yurt-boshimiz I.A.Karimovning quyidagi iborasini esga olish o'rinlidir: "-Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u har birimizdan astoydil. betinim va mashaqqatli mehnatni talab etadi." Darhaqiqat. bir tomondan. barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlar va. ayniqsa, ta'lim tizimi mutasaddilarining zim-masiga bu masala yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda ta'lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Ikkinchi tomondan esa. bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo'lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir. Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat:

– Birinchidan. erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalari sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatani-ning jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etish-ga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol topti-rish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– Ikkinchidan. mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish. shaxsning ichki dunyosini boyitish. binobarin. yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda. yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaralilmog'i kerak;

– Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-ladbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

Tabiiyki. bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muas-salarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tub-dan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir.

Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tar-biyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchay-tirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojla-nishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi - tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta'lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tar-biyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur.

Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayo-nidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish. ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuiy o'qitish va h.k. Ammo ularni oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kemk. Chunki harbiro'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Uning ustiga ayrim pedagoglar konservativ ftkrlash doirasida turib o'qitishning noan'anaviy usul va metodlariga, ko'pincha, bepisand munosabatda bo'ladilar.

An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar.. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning im-koniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar omma-lashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati. an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan. balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji. istagi. moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish tex-nologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda ktitilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi.

Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

➤ *tushunchaga oid qism* - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yo'l;

➤ *ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi va harakatlanuvchi tuzilma* - ta'lim jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha;

➤ *ta'limiy texnologiyalarning konseptual asoslari* - har qanday ta'lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi;

➤ *maqsadni belgilash* - pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lim jarayonini loyihlashtirish mumkin;

➤ *ta'lim berish modeli* – maqbul yo'l (usul va shakl)lar va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda ob'ektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;

➤ *boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi* - bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

➤ *Har bir yo'l va vosita o'qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissasi tomoni bilan baholanishi zarur.*

Qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e'tiborni nafaqat unga, uni qo'llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, qoidalar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatga ega bo'ladi, madomiki ularni qo'llash mumkin bo'lgan, ta'lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtda ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

3. Pedagogik texnika – o‘quv jarayonini samarali tashkil etish shartidir. Pedagogik jarayonda teatr pedagogikasi elementlarini qo‘llash

Pedagogik texnika quyidagi bilim va ko‘nikmalardan iborat: - talabalar bilan muloqotda to‘g‘ri yo‘l va ohangni tanlash; - ularning e‘tiborini tortish; - suhbatdoshini o‘ziga jalb etish; - ma‘lumotni obrazli uzatish va boshqalar. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi quyidagi amaliy ko‘nikmalar guruhlaridan biriga ega bo‘lishi juda muhim hisoblanadi: badiiy (kuylash, rasm chizish, musiqa asboblardan foydalanish va boshqalar); har kim ega bo‘la oladigan tashkilotchilik (masalan, bir yoki bir necha sport turlari bo‘yicha trener, turizm bo‘yicha yo‘riqchi, sayohatchi, to‘garak rahbari). Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o‘zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin. Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi. Talabaning shaxsini o‘rganishga bunday majmualiy yondoshuv, avvalambor, mavjud real o‘quv imkoniyatlarni, ya‘ni ta‘lim olganlik darajasi, o‘qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o‘qish ma‘nosi va sust o‘zlashtirishning didaktik sabablarini o‘rganish, talabalar va pedagoglarning ta‘lim jarayoni bilan qoniqish darajasi, ta‘lim oluvchilarning emotsional holati, o‘zaro munosabatlar xarakteri va boshqalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Pedagogik texnika bu shunday malakalar yig‘indisiki, u o‘qituvchiga o‘quvchi ko‘rib, eshitib turgan voqea, xodisa, narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va his-hayajonlarini yetkazish imkonini beradi. O‘quvchi bilan bevosita muomala qilishda o‘qituvchining ana shu malakalari uning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Mashhur rus pedagogi A.S.Makarenko «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin», degan edi.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchining *mimik va pantomimik* ko‘rinishidir. Aniq imo-ishora, ma‘noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta‘sir ko‘rsatishda ko‘p so‘zli tushuntirishga qaraganda samarali muomala vositalari bo‘la oladi.

Mimika - bu o‘z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko‘z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san‘atidir. Ba‘zan o‘qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o‘quvchilarga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma‘lumotlarning hissiy ahamiyatini ku-chaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar o‘qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, muno-sabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba‘zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g‘am va tashvishning o‘qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg‘ulotlarini mukammal bajarishida o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg‘ulotlariga xos bo‘lgan, o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalash lozim.

O‘qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo‘lishi kerak. O‘qituvchi chehra ko‘rinishidagi mimik ifoda, ta‘lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma‘qullash, ta‘qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquv-chanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o‘zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko‘z, chehra ko‘rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko‘z, chehra o‘quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo‘lish, faxrlanish yoki e‘tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo‘lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o‘quvchilar diqqatini bo‘lmasdan, bosh-qalarga xalaqit bermasdan ta‘lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o‘tish joizki, mimik ifodalar o‘qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma‘naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini beka mu ko‘st namoyish etadi. O‘qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o‘quvchilarga, yoki

ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namo-yish qilish aslo mumkin emas.

Pantomimika - bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoli-yatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomi-mikasi, ya'ni, gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bennasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlana-dilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Panto-mimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-isho-ralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

Pedagogik texnika – o'qituvchi nutqida imo-ishora, mimika, harakat bilan sodir bo'ladi.

O'qituvchi o'zining tashqi ko'rinishini, xatti-harakatini, butun gavdaning, bosh, bo'yin, qo'llar harakatini to'g'ri idora eta olishi, ayrim so'zlar o'rnida mimik yoki pantomimik imo-ishoralarni o'rinli qo'llay bilishi, xissiyoti, kayfiyati, diqqatini to'g'ri boshqara bilishi kerak.

Pedagogik texnika malakalarining barchasi, shu jumladan nutq malakalari ham o'qituvchining shaxsiy psixik-fizilogik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Shaxsiy pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi, ma'lumot turi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Mashhur pedagoglar ta'kidlashicha: «Bu yoqqa kel (idi syuda) so'zini 15-20 xil turli ko'rinishda ifoda etolmasa, yuz, ko'z tuzilishini 20 xilda o'zgartira olmasa u haqiqiy master bo'la olmaydi», deyдилar.

O'qituvchining o'quvchilar bilan mantiqiy, psixologik va axloqiy munosabati mavjud bo'lib, mantiqiy kontakt o'qituvchining har tomonlama o'ylab tuzilgan ma'ruza matni (konspektidir).

Psixologik kontakt:

- 1) o'quvchining, talabning o'quv materialini tushunib, qabul qilishga tayyorgarligi;
- 2) o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan o'quv materialini o'zlashtirish uchun ichki aktivligi va tayyorgarligi;
- 3) o'qituvchi va o'quvchining axloqiy hamkorligi bo'lib, ularni bir-biriga o'zaro ta'siridir.

Agarda darsda o'quvchi bilan o'qituvchining to'liq hamkorligi bo'lmasa, o'quv maqsadlariga to'liq erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchining birinchi o'tadigan darsi, oliy o'quv yurtida o'qiladigan birinchi leksiya juda ko'p javobgarlikni talab etadi. O'qituvchi birinchi darsda o'zining obro'sini ishlab, o'quvchilarga ijobiy taassurot qoldiradi.

O'quvchi, talaba birinchi darsda kutadi:

- o'qituvchi bilan birgalikda ishlash uchun havas va qaratilgan diqqat bilan kutadi;
- o'qituvchi leksiyasi, darsi darslik o'rnini bosadigan dars bo'ladi deb o'ylaydi.
- agarda o'qituvchi sinfga, auditoriyaga kirgan vaqtida o'quvchi va talabning tayyorgarligi, sinfning tayyorgarligiga e'tibor bermasa, kim qanday holatda o'tirganligini ko'zdan kechirmasa, darsning rejasini va mavzusini e'lon qilmasa, bunday dars o'quvchini tezda o'qituvchidan so'vishiga, uzoqlashtirishiga olib keladi.

Darsda o'qituvchining leksiyasi o'rtacha tempda bir minutda 60-80 so'zni tashkil etadi. Pedagogik texnikani amalga oshirishning muhim talablaridan biri o'qituvchi doimiy ravishda doskadan foydalanishi, chiroyli va savodli yoza bilishi, buning uchun doska toza, ho'l latta, sifatli bo'r bo'lishidir.

Pedagogik jarayonda teatr pedagogikasi elementlarini qo'llash. Biz yuqorida pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli, tushunarli, ta'sirchan bayon etish, o'z fikr va tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tdik.

Pedagogik texnikani to'liq egallash uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini ham egallashi zarur. Chunki o'qituvchining faoliyati bir qator xususiyatlari bilan aktyor va rejissyorning badiiy – ijodiy faoliyatiga yaqindir. Harakat, diqqat, mushaklar yorqinligi, hayol, muomala va boshqalar teatr pedagogikasining asosiy tushunchalari bo'lib, ularni bo'lajak o'qituvchi ham o'zlashtirib olishi foydalidir.

Teatr faoliyati bilan pedagogik faoliyat bir-biriga yaqin bo'lib, bir qator umumiy jarayon xususiyatlariga ega. Teatr faoliyati bilan pedagogik faoliyatning maqsadning o'xshashligi yaqinlashtiradi. Har ikkala faoliyatda ham maqsad kishining kishiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi va kishida muayyan tuyg'ular, kechinmalar vujudga keltirishidir. Teatrda ham pedagogik faoliyatda ham shaxsga ta'sir ko'rsatish quroli umumiydir; ya'ni so'z aktyor bilan pedagogning o'z psixofizik tabiati ana shunday qurol vazifasini bajaradi.

Ovozni egallash, ifodali mimika, imo-ishoralar teatr pedagogikasida muhim elementlardir. Bular pedagogik faoliyatda ham muhim vositalardir. Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur ma'nolarni bera olmaydigan, o'z kayfiyatini ushlab tura olmaydigan kishi tarbiyachi bo'la olmaydi.

Teatr va pedagogik faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra o'zi ta'sir ko'rsatadigan ob'ektni ayni vaqtda ijod sub'ektiga, sherik ijodkorga aylantiradi.

Aktyorlik va pedagogik faoliyat asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomida ijodkorlik yotadi. U ijodkordan, ya'ni o'qituvchi – tarbiyachidan o'z psixik holatini boshqarishda tezkorlikni, ijodiy kayfiyatni talab qiladi. Teatr va pedagogik ijodkorlik jo'shqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi. U doimo jamoa tusda bo'ladi.

Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchilik faoliyati bir necha xususiyatlar bilan aktyor va rejissyorning faoliyatiga yaqin ekan. Tarbiyachi ijodkorligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ijodiy fikrni o'z shaxsi orqali amalga oshiradi. Pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli bir-biriga mos keladi, bunda tarbiyachining o'z-o'zini namoyon qilishi juda muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolaga pedagogik ta'sir etish tarbiyaviy ta'sir rejasini ishlab chiqadi va bu rejani o'zi amalga oshiradi.

O'qituvchi nutq texnikasi va madaniyati. O'qituvchi nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikri hamda xis-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi va bu o'qituvchilik kasbi uchun juda ham muhimdir.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki ma'qullamayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha ta'sirchanligi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini yuksak darajada faollashtirishga qaratiladi, o'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchilarning diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi. Shuningdek, o'rinli qochiriq, xazil, yengilgina istehzo nutqni juda jonlantirib yuboradi va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradilar.

O'quvchining nutqi aniq, jonli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi chiziq, zeriktiradigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi, ularni lanj va loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'qituvchilar tez gapirishga moyil bo'ladilar. Birok o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha jonli

nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshkaloklik materialni uzlashtirishga xalakit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Haddan tashqari keskin va baqirok nutq o'quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo'yadi. Me'yori bilan aytilgan nutq texnikasini borishi bir minutda 60-80 so'zni tashkil etadi.

O'qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi, kup marta takrorlanadigan imo – ishoralar, harakatlar o'quvchining gashini keltiradi.

Demak, *nutq texnikasi* deganimizda nutqni o'quvchiga yetkazishda kullaniladigan vositalar tushuniladi. *Nutq ikki xil* bo'lganidan, uning texnikasi ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi :

- a) og'zaki nutq texnikasi;
- b) yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi – tovush, bo'g'in, so'zlar, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarining faollashtiruvchi mashqlarini anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, diksiyaga e'tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, undoshlarni talaffuz etish, oxang kabilar kiradi.

Nutq texnikasidagi muhim ko'rsatkichlardan biri uning *xissiyligidir*. Psixologlar ijobiy hissiyotni inson foaliyatidagi qudratli omil deb hisoblaydilar.

Nutq sifati, ovoz har bir o'qituvchida har xil bo'ladi. Biroq tegishli mashqlar natijasida ovozni o'zgartirish mumkin. Nutqdagi kamchiliklarni yuqotish uchun tinmay mashq qilib borish zarur. Ovozdan foydalanishda nutq texnikasining asosini tashkil qiluvchi *nutq apparatlarini* yaxshi bilish kerak.

O'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri muomala qila olish madaniyati va texnikasi. Bolalarga yaqinlasha olish, o'quvchilarga to'g'ri muomala qilish yo'lini topish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik texnikaning mavjudligidandir. O'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilari, kasbdoshlari, o'quvchilarning ota-onalari bilan muomalada bo'ladi. O'qituvchi faoliyatining ta'sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala madaniyatiga bog'liqdir.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala madaniyatida muallimning axloqiy madaniyati, kiyinish madaniyati, so'zlash madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. O'qituvchining pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilariga, kasbdoshlariga, o'quvchilarning ota-onalariga, jamoatchilikka muomala madaniyatini belgilovchi talablar mavjud. Pedagogik jarayonda muomala madaniyati va texnikasi muallimning pedagogik faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi o'z burchini bajarayotganida u o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amho'rlik, bir-birlarini inson sifatida qadr-qimmatini e'zozlash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik madaniyat va texnika o'qituvchining pedagogik faoliyatida boshqalar bilan muomalasining harakterini baholashga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham ish jarayonining turli sohalarida turlicha muomala madaniyati mavjud. Masalan, jamoat topshiriqlarini bajarishda, dam olish paytlarida, muomala, shuningdek o'qituvchining o'z kasbiga, Vataniga, xalqqa, boshqa-boshqa topshiriklarga bo'lgan munosabati o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala madaniyati. Pedagogik jarayonda o'qituvchi bilan o'quvchining o'rtasidagi *muomala madaniyati* katta o'rin egallaydi. Juda ko'p o'qituvchilar o'z kasblariga sodiq qolib, o'qituvchilik faoliyatida fidoyilik ko'rsatib, o'z burchlarini yuksak darajada bajaradilar. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda ular qalbiga xalollik, go'zallik, haqiqat, odob-axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi g'oyalarni singdira olganliklari, xushmuomalada bo'lganliklari uchun ham bolalar oldida katta obro'ga egadirlar.

Ochig'ini aytish lozimki, hamma o'qituvchilar ham shunday muomala qila olmaydilar. O'zlarining qo'pol, o'rinsiz aytgan so'zlari, qilgan muomalalari bilan bolalar ko'nglidan o'rin ola olmaydilar. Qo'pol muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy

talablarga to'g'ri kelmaydi, natijada bolalar orasida, o'quvchilar jamoasida obro' ortira olmaydilar.

Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala madaniyatining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy foydali mehnat, shanbaliklar o'z xususiyatiga ko'ra darsdan farq qilib, dars singari qat'iy tartibga tushirilmagani uchun ham o'qituvchi va o'quvchidan o'zaro nazoratni kuchaytirishni, xalollik va vijdonlilikni, xolislikni, axloqiy mas'uliyatni ko'proq talab etadi. Ayniqsa ekskursiyalar, safarlar, kino va teatrlarga borishlar o'qituvchi bilan o'quvchilarning muomala madaniyatiga ko'proq bog'likdir. Xuddi shuningdek, o'qituvchining o'quvchining ota-onasi, o'quvchilar jamoasi, o'qituvchilar va maktab rahbarlari bilan qiladigan muomala madaniyati va texnikasini shakllantirib borishni talab qiladi.

Nazorat savollar

1. "Pedagogik mahorat" ga ta'rif bering?
2. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar?
3. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
4. "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da talqin etilgan pedagogik hislatlari?
5. O'qituvchi harakatlarida aktyorlikka xos xususiyatlarga ta'rif bering?
6. T.Sodiqovning falsafiy fikri: pedagogik texnika va "murabbiylik shartlari"ga o'z mulohazalaringizni bildiring?
7. O'qituvchining tashqi ko'rinishida pedagogik texnikaning qanday holatlari muhim ahamiyat kasb etadi?
8. O'qituvchining pedagogik faoliyatida mimik va pantomimik harakatlar qanday ahamiyatga ega?